

Navodir un-Nihoya (III- qism)

Alisher Navoiy

G‘AZALLAR (DAVOM)

597

*Yuz jafo tong yo ‘qki ul nomehribondin ko ‘rgamen
Kim, vafo ko ‘rmish birovdinkim men ondin ko ‘rgamen.
Kimsa abnoyi zamondin ko ‘rmadi hargiz vafo,
Kim men ul xunrezu oshubi zamondin ko ‘rgamen.
Qo ‘yki itdek telba ko ‘nglum necha mehnat, ey rafiq,
Har dam ul ovorai behonumondin ko ‘rgamen.
O ‘zgalar arzin netaykim jonima orom erur,
Javru bedodikim ul oromi jondin ko ‘rgamen.
Nozaninlar jilvagohi ichra har yon telmurur,
Ko ‘zlarimkim ul sumanbarni qayondin ko ‘rgamen.
Yeru ko ‘kni ashku ohim sayli dudi qildi gum,
Necha ranju mehnat ul ikki yomondin ko ‘rgamen.
Dema ul oy orazin ko ‘rsang urar boshingg ‘a tig ‘,
Har balo kelsa boshimg ‘a osmondin ko ‘rgamen.
Xirqayu sajjodani qilsam fano dayrida rahn,
Ikki olam sudini mundoq ziyondin ko ‘rgamen.
Ey Navoiy, so ‘rmag ‘ilkim qilmog ‘umdur oshkor,
Yuz nihoni dardu mehnatkim falondin ko ‘rgamen.*

598

*Ikki gul bir kecha ko ‘nglumni guliston aylabon.
Oldilar jonimni bedod ulcha imkon aylabon.
Biri bo ‘rkin sindurub, jonlar safin sindurg ‘ali
Aqlu din mulkin safi mujgoni vayron aylabon.
Biri bir necha hilolin egri bog ‘lab noz ila,
Anjumu aflokni husnig ‘a hayron aylabon.
Biri xatti sabzasidin gulga aylab hoshiya,
Bazmni ul sabzayu gul bog ‘i rizvon aylabon.
Biri olam ahlining ko ‘ngli qushin sayd etgali
Sunbuli domini gul uzra parishon aylabon.
Biri qoshu kirpigidek o ‘q bila yo ilgida,
Lek ul yo birla o ‘q jonlarni qurbon aylabon.
Biri vo ‘sma birla surma rangidin ko ‘k toqini
Ofat angizu qaro nargisni fatton aylabon.
Biri bog ‘lab bargni to ‘n uzra minorang qo ‘r,
Naxli qaddin g ‘ayrati sarvi xiromon aylabon.
Biri gulgun to ‘ng ‘a sarig ‘ ostardin zeb etib,
Sarvi ra ‘nosin guli ra ‘noda pinhon aylabon.
Mastlig ‘din ul qilib ilgida dog ‘in oshkor,
Sho ‘xlug ‘din jong ‘a bu yuz dog ‘i xirmon aylabon.
Zulm ila ul o ‘lturub, bu lutfi birla tirguzub,
Gar bu qilsa zulm ul ham lutfu ehson aylabon.
Men agar boqsam bu yon tig ‘ urub oning ishvasi,*